

«UzAuto Motors» AJ
XARID XUJJATLARI



22ZD-9036-00134

2022-06-17

"Tasdiqlayman"
UzAutoMotors AJ
Bosh direktorning 1-o'rribbosari
B.U. XUSAINOV

№	Asosiy parametrlar	Ko'rsatkichlar
1	Model	Labo
2	Asos	Butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini izlashda eng yaxshi takliflarni tanlash.
3	Chegaraviy narx	820 530 060 (Sakkiz yuz yigirma million besh yuz o'ttiz ming oltmish) so'm.
4	Butlovchi qism turi	Labo avtomobilining rezina butlovchi qismi.
5	To'lov shartlari	To'lov shartnoma bo'yicha – xar oyda 2 marta 15 sanadan keyin va xar oy oxirida agar kelishuv xisoboti mavjud bo'lsa 15 bank kuni ichida milliy valyuta (So'm)da amalga oshiriladi.
6	Yetkazib berish sharti	Ta'minotchi hisobidan "UzAutoMotors" AJ Xorazm viloyati filiali zavodi omborigacha
7	Xizmat turi	Yetkazib berish shartnomasiga asosan

Komissiya raisi

**Sanoat va axborot
texnologiyalarida tijorat
aloqalarini kengaytirish va
mahalliylashtirish masalalari
bo'yicha bosh direktor birinchi
o'rribbosari
Bosh direktorning birinchi
o'rribbosari funktsiona guruhi**



2022-06-17 14:22

B. U. XUSAINOV
2022-06-17 13:44

Komissiya a'zolari

Xizmat rahbari
Ichki audit xizmati



2022-06-09 10:25

B. X. Isomiddinov
2022-06-08 10:50

Departament direktori
Yuridik departament



2022-06-16 08:51

R. R.
Shaymardonov
2022-06-08 10:50

**Iqtisodiyot va moliya bo'yicha
boshqaruvchi direktor**
Moliya bo'yicha funktsional guruh



2022-06-14 09:28

K. J. Umurzakov
2022-06-08 10:50

Rozilik

Boshqaruvchi direktor
*Xorazm viloyatidagi Pitnak sh.
"UzAuto Motors" AJning filiali*



2022-06-08 10:50

S. M.
Jumaniyazov
2022-06-08 08:53

Bo'lim ichida rozilik

Boshqarma boshlig'i
*Global xarid qilish va ta'minot tizimi
boshqarmasi*



2022-06-08 08:53

U. P. Ruzibayev
2022-06-03 13:56

Bo'lim boshlig'i
Maxallillashtirish bo'limi



2022-06-08 08:27

D. K. Annaqov
2022-06-03 13:56

Bo'linma boshlig'i
HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi



2022-06-03 13:58

E. I. Qilichov
2022-06-03 13:56

Mas'ul

Muhandis-texnolog
HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi



2022-06-03 13:56

B. A. Raximbayev
2022-06-03 13:56

Mundarija

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomasi.
- II. Tanlovning texnik qismi.
- III. Tanlovning narx qismi.
- IV. Shartnoma loyixasi.

I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomalar

1	Umumiy qoidalar	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprel kungi O'RQ-684-sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'rnlarda «Qonun»)ga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi №PQ-3550-sonli «Loyixaoldi, loyixa, tanlov xujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (keyingi o'rnlarda «Qaror»)ga, shuningdek, Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3016) (keyingi o'rnlarda «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Tanlov mavzusi: Labo avtomobilining 94585700 - STOP-E/GATE HGE rezina butlovchi qismini ishlab chiqarish.
		1.3	Tanlovnинг quyи va yuqori qiymatlari va valyutalari tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar va ishlar) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolarining bevosita ishtirokida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin.
2	Tanlov tashkil qiluvchilar.	2.1	Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» AJ (keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi») hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1. Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 01169, STIR 200244767, x/r 2021 4000 9005 3230 5053 AT «Asaka bank» Hazorasp filiali
		2.2	Buyurtmachining aloqa bog'lovchi vakili: Global xarid qilish boshqarmasining HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi muxandis-texnolog. email: Bekzod.Raximbayev@uzautomotors.com tel: +998781502200 2 4988 #
		2.3	Tanlov komissiyasining ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali Mahalliylashtirish bo'limi (keyingi o'rnlarda «Ishchi organ») hisoblanadi.
		2.4	Shartnoma egasi: «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali
		2.5	Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan besh kishidan iborat kompaniya komissiyasi tomonidan baxolanadi.
3	Tanlov ishtirokchilari	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin, Ushbu tanlov

			xujjalaring 4.2 bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.
		3.2	Ekeltron tanlovda qatnashish uchun ishtirokchi.
			Etender.uzex.uz saytida ERI kaliti orqali ro'yxadan otishi va kerakli bo'limlarni to'ldirishi kerak. (Mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlar). Yakka tartibdagi va rezident tadbirkorlar faqat raqamli imzo (ERI) yordamida ro'yxatdan o'tishlari mumkin.
4	Tanlov o'tkazish tartibi	4.1	<p>Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) takliflarni qonunchilik talablari va muddatlariga, hamda tanlov xujjalarga muvofiq ravishda yuborishlari kerak. Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron tenderda ishtirok etadilar elektron raqamli imzo (keyingi o'rnlarda - ERI) yordamida. Mijozlar va ishtirokchilar tomonidan foydalanilganda, ERI elektron tizimda tuzilgan shartnomaning haqiqiyligini tan olish uchun asos bo'ladi.
		4.2	<p>O'zbekiston Respublikasi norezidentlari elektron davlat xaridlari tizimida ro'yxatdan o'tadilar va ERI kalitisiz shaxsiy kabineti orqali tijorat takliflarini yuboradilar.</p> <p>Tanlovda ishtirok etishga quyidagi ishtirokchilarga ruxsat berilmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qayta tashkil bo'lish, tugatilish yoki inqirozlik bosqichida turgan; - buyurtmachi bilan sudlashuv yoki arbitraj muxokamasida bo'lган; - Layoqatsiz (insofsiz) ijrochilarining yagona ro'yxatida bo'lган; - soliq va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorligi bo'lган; - Imtiyozli soliq tizimi bilan ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operasiyalar o'tkazishda oshkoraliqka va ma'lumot berishga yo'l qo'ymaydigan davlatlardagi yoki xududlar (offshore xududlar) dagi banklarda xisob raqamlari bo'lган yoki ro'yxatdan o'tgan;
		4.3	<p>Buyurtmachi quyidagi holatlarda tanlov ishtirokchisini xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatish xuquqiga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tanlov ishtirokchisi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho

			buyumni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
			- tanlov ishtirokchisi O'zR qonunchiligin buzgan holda boshqa raqobatchilardanadolatsiz ustunlikka ega bo'lsa yoki qonunchilikka zid ravishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda
		4.4	Operatorning elektron tizimi amalga oshiradi avtomatik rejimda:
			<ul style="list-style-type: none"> - har bir lot bo'yicha amalga oshirilgan avans to'lovi miqdoriga muvofiq elektron xaridlarga ruxsat berish; - elektron xaridlarni amalga oshirish; - elektron xaridlar natijalari bo'yicha pudratchini aniqlash - bitimni rasmiylashtirish va shartnomani shakllantirish
		4.5	Ishtirokchi ariza shaklini to'ldirilgandan so'ng, ishtirokchi xaqida elektron tizimi orqali vijdonsiz ijrochilarning yagona reestridagi ma'lumotlari tekshiriladi – mavjud yoki mavjud emasligi.
		4.6	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi: Korparativ buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan eng yaxshi taklifni tanlash tanloviga buyurtmachining talabiga binoan oldindan to'lov (Задаток) to'lashi va go'lib bo'lgan ta'minotchi bilan shartnomma imzolangunga qadar xarid platformasida pullar bloklanadi.
5	Tanlov tili, o'lchov birligi	5.1	Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtaida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (xujjatlar) o'zbek, Rus-tillarida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasi ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tanlov matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi.
			Tanlov takliflarida umumiyl qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanilishi kerak.
6	Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlovda ishtirok etuvchilar e'londa ko'rsatilgan tanlov o'tkaziladigan xarid platformasi (etender.uzex.uz)ga takliflarini, va ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlangan xolda xarid platformasiga ERI kaliti orqali joylashtirishi talab etiladi.
		6.2	<p>Tanlov ishtirokchisi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - taqdim qilinayotgan ma'lumot va xujjatlarning xaqiqiyligi va ishonchliligiga javobgar; - faqat bitta taklif berish xuquqiga ega; - takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish xuquqiga ega.

		6.3	Tanlov taklifi ikki qismidan iborat: <ul style="list-style-type: none"> - texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan tovar xaqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak; - narx qismi tanlov shartlariga mos kelishi kerak va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, maxsulot nomi, bir dona uchun narx, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va x.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak
		6.4	Tanlov ishtirokchisining narx taklifi va narxlar jadvali alovida tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak, shuningdek, elektron tashuvchilarda original formatda (Microsoft Office) taqdim etishga ruxsat etiladi. Narx shakllantirishdagi formulalarini kuzatish imkonini bo'lishi kerak.
		6.5	Tanlov taklifilarini xarid platformasida ko'rsatilgan lot ostiga taqdim etilishi kerak.
		6.6	Tanlov taklifida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: <ul style="list-style-type: none"> - ma'lumotlar portalidagi lot raqami; - tanlov mavzusi; - ishtirokchining nomi; - buyurtmachining nomi va manzili; - ishtirokchining kontakt ma'lumotlari (elektron pochta manzili, vakolatli vakilning telefon raqami);
		6.7	- korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda ariza berish talabi.
		6.8	Ishchi organ mazkur yo'rqnoma talablariga mos ravishda ro'yxatga olingan tanlov takliflarining yaxlitligi va saqlanganligiga javobgarlikni zimmasiga oladi.
		6.9	Tanlov takliflari http://etender.uzex.uz portalida e'lon berilgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida (soat 17:00) gacha xarid platformasiga joylashtirishi shart.
		6.10	Tanlov takliflari taqdim qilingan takliflarni muxokama qilish komissiya a'zolari bilan birgalikda o'tkaziladi.
		6.11	Tanlov taklifi amal qilish muddati tanlov taklifi taqdim qilishning so'nggi kunidan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kunni tashkil qilishi kerak.
7	Tanlov takliflarini taqdim muddatini uyzaytirish	7.1	Buyurtmachi zarur xollarda taklif taqdim qilish muddatini uzaytirishi mumkin, shuningdek, tanlov ishtirokchilariga ularning takliflari amal qilish muddatlarini tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

		7.2	Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish xaqidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va zarur xollarda buyurtmachi saytida yoki boshqa OAV da e'lon qilinadi.
8	Tanlov xujjalariaga o'zgartirishlar kiritish	8.1	<p>Zarur xollarda buyurtmachi tanlov xujjalariaga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.</p> <p>Tanlov xujjalariaga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror taklif taqdim qilish muddatidan kamida 3 (uch) kun oldin qabul qilinishi mumkin.</p> <p>Tanlov xujjalariaga o'zgartirish kiritish jarayonida maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish) yoki uning xarakteristikasi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Taklif taqdim qilish muddati tugaguncha tanlov xujjalariaga o'zgartirish kiritilgan xollarda, tanlov muddati o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'limgan muddatga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtida agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.</p>
9	Tanlov takliflari ko'rish jarayoni, ularni baxolash tartibi va mezonlari	9.1	E'londa tanlov o'tkazish vaqtida ko'rsatilgan vaqtida tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan tanlov takliflarini baxolash uchun tanlov takliflarni ochadi.
		9.2	Tanlov ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baxolash tanlov komissiyasi tomonidan tanlov takliflari taqdim qilish muddati tugagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi.
		9.3	Takliflarni ochishda barcha xujjalarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshiriladi. Mos xujjalalar bo'limgan xolda tanlov komissiyasi mazkur taklifni ko'rib chiqishga va baxolashga qo'ymaslik xuquqiga ega.
	 Malaka hujjalari.docx	9.4 9.5	<p>Tanlov komissiyasi tanlov xujjalarda ko'rsatilgan mezonlar asosida g'olibni aniqlash uchun rad qilinmagan takliflarni baxolashni amalga oshiradi.</p> <p>Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi zarur bo'lgan saralangan xujjalalar shakkiali va ro'yxati tanlov xujjalalarining 1-ilovasida keltirilgan.</p>

		9.6	Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi ma'lumotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatishga xaqli.
	 Baholash mezonlari.docx	9.7	Tanlov takliflarini baxolash va g'olibni aniqlash tanlov xujjatlari(2-ilovasi)da bayon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi.
		9.8	Agar taklif Qonun, qaror, nizom talablariga va tanlov xujjatlariga mos kelsa, tegishlicha rasmiylashtirilgan deb tan olinadi.
		9.9	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.10	Tanlov takliflarini baxolash jarayonida ishchi organ tanlov ishtirokchilaridan ularning takliflari yuzasidan izox talab qilishi mumkin. Ushbu jarayon rasmiy ravishda, tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda yozma shaklda amalga oshiriladi. Izox jarayonida taklif moxiyati, shuningdek, narx bo'yicha o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.
		9.11	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov takliflari ochilish sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
		9.12	Tanlov xujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomalar ijrosining eng yaxshi shart-sharoitlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb tan olinadi.
		9.13	Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisini boxabar etgan xolda tanlov taklifini rad etish yoki ularni ko'rib chiqish uchun boshqa shartlar belgilashga xaqli.
		9.14	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdag'i soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.15	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

		9.16 9.17	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi ishchi organning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va uning ko'chirmasi imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi. Xarid tadbiri natijasi bo'yicha har bir alohida tovar (ish, xizmat ko'rsatish uchun) alohida g'olib aniqlanishi mumkin
		9.18	Xar qanday tanlov ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tanlov natijalari bo'yicha izox taqdim qilishi xaqida so'rov yuborishga xaqli.
10	Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar: <ul style="list-style-type: none"> - ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar; - komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rghanish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtaida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xattixarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari
		10.2	Shartnomaga bo'yicha majburiyatlari (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
11	Boshqa shartlar	11.1	Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod maxsulotlari taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu maxsulotlar bo'yicha uchinchi tomon bildirgan fikr-muloxazani taqdim qilishni so'rashga xaqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov xaqida izox olish uchun ishchi organga murojaat qilish xuquqiga ega
		11.3	Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov e'lonida ko'rsatilgan shaklda tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirib berilishi to'g'risida so'rov yuborishga xaqli. Mazkur so'rov taklif taqdim qilish muddati tugashiga 3 (uch) kun qolganidan avval qabul qilingan bo'lsa taqdim qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida buyurtmachi belgilangan shaklda tanlov xujjatlari qoidalariga tushuntirishlar yuborishi shart. Tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirish uning moxiyatini o'zgartirmasligi kerak.

		11.4	Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin: <ul style="list-style-type: none"> - tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa; - takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa.
		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtida tanlovni bekor qilishga xaqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
12	Shartnomा imzolash	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra tanlov xujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan shartnomा imzolananadi.
		12.2	Tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra g'olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida tanlov komissiyasi xulosasi xaqida yozma ravishda ogoxlantiriladi. G'olib aniqlangan paytdan boshlab 10 (o'n) kun ichida buyurtmachi va g'olib shartnomা imzolashlari kerak.
		12.3	Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnomা imzolashni rad etgan xolda shartnomা imzolash xuquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi. Bunday xolatda zaxiradagi ishtirokchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnomা imzolashi yoki shartnomা imzolashni rad etishi mumkin.

TEXNIK QISM

Labo avtomobilining 94585700-STOP-E/GATE HGE raqamli rezina butlovchi qismini ishlab chiqarish.

Ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, xajmi va xususiyati (talablari).

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjatlarining texnik qismi, 1-ilovasida ko'rsatilgan "Texnik topshiriq" (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

Butlovchi qismlarni oylik ishlab chiqarilish xajmlari "UzAuto Motors" buyurtmasiga muvofiq o'zgarishi mumkin.

Butlovchi qismlarni yetkazib berish muddati (yoki jadvali), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar.

Yetkazib berish tartibi, 1-ilovada keltirilgan, qismlarni yetkazib berish EDI (Elektron ma'lumotlar almashuvi) tizimi va ASN (oldindan yetkazib berish xabarnomasi) tizimi buyicha, xisob-varaqa (schet-faktura) asosida amalga oshiriladi.

Ilova: Texnik topshiriq (TT)



Texnik topshiriq (TT)

Butlovchi qism nomi	-94585700-STOP-E/GATE HGE
Texnik ko'rsatkichlari	<p style="text-align: center;">Material</p> <p style="text-align: center;">-94585700-STOP-E/GATE HE</p> <p style="text-align: center;">R 807</p> <p style="text-align: center;"><i>Umumiylar ko'rsatkichlar va o'lchamlar chizmada to'liqroq ko'rsatilgan.</i></p> <p style="text-align: center;"><i>Eslatma: Ikkilamchi materialdan foydalanish mumkin emas.</i></p>
Butlovchi qismga texnika-texnologik talablar	<p style="text-align: center;">Mahsulotni qabul qilish</p> <p>Masulotni sifati bo'yicha qabul qilish buyurtmachining "Butlovchi qismlarni kiritish nazorati" standartiga asosan amalga oshiriladi.</p> <p>Mahsulotni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilish buyurtmachining korxonasida ta'minotchining vakili ishtirokida amalga oshiriladi.</p> <p>Yetkazib berilgan mahsulot miqdori buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan talabnomaga binoan, yozma yoki elektron shaklda kelishilgan shaklda berilgan hajmlarga mos kelishi lozim.</p> <p style="text-align: center;">Mahsulot sifati</p> <p>Ta'minotchi buyurtmachiga mahsulotni buyurtmachi tomonidan joriy etilgan me'yor va o'rnatilgann standart, mahsulotni sifatini, chizmalar talablari, me'yoriy xujjatlar, nazorat qilish usullari asosida yetkazib berilishiga kafolat beradi.</p> <p>Mahsulot materialini, tuzilishini yoki hujjalarni bir tomonlama o'zgartirilishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Buyurtmachi mahsulot sifatini va ta'minotchining ekologik sertifikati mavjudligini tekshirish huquqiga ega va zarur hollarda bu tekshirish huquqi bevosita iste'molchiga ham berilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;">Sifat kafolati.</p> <p>Agar mahsulot kam yetkazib berilishi va sifat nomuvofiqligi, qadoqsiz va o'ramasiz yoki talab darajasida bo'limgan qadoqda va o'ramada kelganligi, markasiz yoki talab darajada markalanmaganligi ta'minotchi vakili ishtirokida aniqlansa, ta'minotchi 3 (uch) ish kunida ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi va yetishmayotgan miqdorini o'z mablag'lari xisobidan to'ldirilishi lozim, shuningdek buyurtmachidan yozma xabar(pochta, faks, electron pochta) qabul qilinganidan keyin yoki yetkazib berilgan sanadan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida tegishli idishga qadoqlash, markalash ishlarini bajarishi kerak.</p>
Butlovchi qismning ishlatalish joyi	Yig'uv tsexdida ishlataladi

Narx qismi	Tender taklifida ko`rsatilgan narxlar eng past narxdan oshmasligi kerak va keyinchalik o`zgartirilishi mumkin emas. Taqdim qilingan narxlar O`zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so`mda va qo`shimcha qiymat solig`i (QQS) bilan ko`rsatilishi lozim.
Fotosurat	
Chizmasi va umumiy talablar	 94585700 Chizma va Rasm.zip
Qo`shimcha talablar	<p>Tara va qadoqlash Butlovchi qismni yetkazib berishda shakli va hajmi ta`minotchi tomonidan ishlab chiqilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan maxsus idishlar ishlatiladi va buyurtmachi bilan kelishilgan talablarga ko`ra markalanishi lozim.</p> <p>Mahsulotni yetkazib berishda quyidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olgan yorliq yopishtiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – avtomobil turi; – butlovchi qism nomi, raqami va soni; – ta`minotchining kodi; – yetkazib berish joyi; – idish hajmi, qadoqlash sanasi, nazorat xolati va boshqalar.

III. Maxsulot narxi bo'yicha

1	Chegaraviy narx (Predelnaya stoimost)	820 530 060 (Sakkiz yuz yigirma million besh yuz o'ttiz ming oltmis) so'm. QQS bilan
2	Moliyalashtirish manbai	O`z mablag`lari asosida
3	To`lov shartlari va to`lov tartibi	Shartnomaga ko`ra-taqqoslov dalolatnomasi hisoboti mavjud bo`lsa 10 bank kuni ichida, 15-sanadan keyin va har oyning oxirida.
4	To`lov valyutasi	UZS – O`zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (Sum)
5	Yetkazib berish vaqtি	Shartnoma imzolangandan keyin shartnoma muddati tugagunga qadar.

6	Maxsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish)	Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1.
7	Tanlov uchun takliflar taqdim etilishining amal qilish muddati	5 kun

Ilova№1: Tanlov hujjatlari uchun

**Malakaviy hujjatlar
RO'YHATI**

1. Komissiya raisi nomiga Tanlovda qatnashish uchun ariza (shakl №1)
2. Tanlov ishtirokchisining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hujjatning nusxasi.
3. Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini, mijoz bilan sud yoki hakamlik holatida emasligini, shuningdek, ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (2 -shakl).
4. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (3 -shakl)

Shakl №1

ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA

Nº: _____
Sana: _____

Xarid komissiyasi

ARIZA

Tanlov hujjatlari (taklif qilinayotgan mahsulotlarning nomini ko'rsating) bilan tanishib chiqqandan so'ng, №_____ so'rovlarga javoblar (yozma so'rovlar va ularga javoblar berilgan taqdirda so'rovlar raqamlarini ko'rsating), biz buni tasdiqlaymiz. (Tanlov ishtirokchisining ismi), tanlov hujjatlariga muvofiq mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish maqsadida.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboramiz:

1. _____ varaqda malaka hujjatlari (varaqlar bukletlar, kompakt disklar va boshqalarni taqdim qilgan taqdirda, sonini ko'rsating);
2. Tanlov taklifining texnik qismi;
3. Tanlov taklifining narx qismi;
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va sonini ko'rsatish kerak).

Tanlov taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning F.I.O:

Aloqa telefoni / faks: _____

Elektron pochta manzili _____

F.I.O rahbar yoki vakolatli shaxsning imzosi

Muhr o'rni

Shakl №2

ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA

№: _____

Sana: _____

Xarid komissiyasi

Ushbu xat bilan kafolat beramiz korxonamizning_____:
(korxona nomi)

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarilishi bo'yicha muammolar yo'qligi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas;
- sudlanish yoki hakamlik holatida emas;
- shuningdek, kompaniyaning banki ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmagan;
- vijdonsiz ijrochilarining yagona reestrida ro'yxatga olinmagan.

Imzo:

- Korxona rahbari F.I.O. _____
- Bosh buxgalter F.I.O. _____
- Yurist F.I.O. _____

Mehr o'rni

Shakl №3

Tanlov ishtirokchisi haqida umumiylumot

1	Huquqiy shaklini ko'rsatuvchi yuridik shaxsning to'liq nomi	
2	Ro'yxatga o'linganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga oluvchi organning nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa telefoni, faks, e-mail	
5	To'liq bank tafsilotlari(rekvizit)	
6	Korxonaning asosiy faoliyati	

_____ (*vakolatli shaxs imzosi*)

_____ (*vakolatli shaxsning lavozimi va F.I.O.*)

M.O'.

Sana: «____» _____

Ilova №2 Tanlov hujjatlari uchun

Ishtirokchilarni malakaviy tanlash va takliflarni baholash
tartibi va mezonlari.

Malakali tanlov (baholash) tanlovning texnik va tanlov qismlarini ko'rib chiqish boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar ishtirokchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmasa, xarid komissiyasi uning tanlovda ishtirok etishiga ruxsat bermaydi.

Baholash mezonlari

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
1	Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarilishi	To'g'ri / noto'g'ri (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar noto'g'ri bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega
2	Ishtirokchining moliyaviy ko'rsatkichlari taqdimoti	Bor/ yo'q	Agar ko'rsatilmagan bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega
3	Oldindan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi.
4	Offshor zonalarda ishtirokchi va bank ishtirokchisini ro'yxatga olinganligi	Ha/yo'q	Ishtirokchi, shuningdek, banklari offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilarga tanlovda qatnashishga ruxsat berilmaydi
5	Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
6	Buyurtmachi bilan sud muhokamasi yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
7	Ishtirokchi ijrochilarining vijdonsiz yagona reestriga kiritilgan	Ha/ yo'q (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi

8	Ishtirokchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzi yo'qligi to'g'risida soliq idorasidan ma'lumotnoma.	Bor/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
9	Ta'sischilar bir xil yuridik va/yoki jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar	Ha/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
10	Ishtirokchining Tashkiloti Blankasida (1-shakl)	1-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan
11	Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (guxovnomasi)	Bor/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
12	Kafolat xati (2-shakl)	2-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan
13	Tanlov ishtirokchisi haqida umumiyl ma'lumot (3-shakl)	3-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan

Izoh:

Qonunning 37-bo'limi

Davlat buyurtmachisi zarur hollarda mahsulot (ish, xizmat)ning o'ziga xos xususiyatlari yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, ishtirokchilarga qo'shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak.

Ishtirokchilar uchun qo'shimcha talablar ma'lumotlarda ko'rsatilishi kerak, e'lon qilingan paytdagi davlat xaridlari to'g'risida.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar bilan davlat xaridlarida ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki saralashdan o'tadilar.

1. Takliflarni texnik baholash.

Tanlov jadvalida ko'rsatilgan texnik baholash mezonlari asosida o'tkaziladi. Agar taklifni texnik baholash natijalariga ko'ra, Tanlov ishtirokchisi mezonlar bo'yicha "0" ball to'plagan bo'lsa, bu ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan

tanlovda qatnashishdan diskvalifikatsiya qilinadi va uning taklifi boshqa ko'rib chiqilmaydi.

Ballar = (Olingan ballar / Maksimal ballar) * Kategoriya ko'rsatgichi%

Texnik baholash mezonlari

Nº	Mezonlar	Majburiy	Baholash
1	Texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etish. R 807 <i>Eslatma: Ikkilamchi materialdan foydalanish mumkin emas.</i>	Buyurtmachi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
2	Ishlab chiqarish grafigi (Сетавой график)	Max 90 кун	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
3	To‘g‘ridan-to‘g‘ri issiq shakllantiruvchi presslarning mavjudligi	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
4	Chizmaga asosan butlovchi qismlarning qoliplari (Tayyor bo’lsa rasmi yoki Ma’lumot)	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
5	Ishlab chiqarish binosi (foto lavxa)	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
6	Transport xarajatlari	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball

КОМПЛЕКС ТЕКШИРУВ АНКЕТАСИ

“UzAuto Motors” акциядорлик жамияти (кейинги ўринларда – “Компания”) коррупцияга қарши кураш, жиной даромадларни легаллаштиришга қарши кураш ва иқтисодий санкциялар тўғрисидаги қонунларга жуда жиддий ёндашади ва бирон-бир шартномани тузишдан олдин потенциал бизнес ҳамкорларидан Компанияяning Бизнес ҳамкорларининг одоб-ахлоқ Кодексига мувофиқлигини таъминлаш мақсадида муайян маълумотларни тақдим этишни талаб қиласди.

Марҳамат қилиб, ушбу анкетани иложи борича тўлиқ ва аниқ тўлдириинг. Агар савол сизга тааллуқли бўлмаса ёки сиз жавобни билмасангиз ёки жавоб бера олмасангиз, илтимос, буни жавобингизда албатта қисқа изоҳланг. Тўлиқ бўлмаган ёки ноаниқ жавоблар кейинги процедуralарни талаб қилиши мумкин бўлиб, бу шартномани тузиш жараёнини кечиктиради. Зарурат бўлганда Компания қўшимча маълумотни сўраши мумкин. Агар сиз билан тузилган шартнома муддати давомида жавобларингиздан бири ўзгарса, бу ҳақда дарҳол Компанияни хабардор қилишингиз лозим.

Ушбу анкета Сиз/Сизнинг ташкилотингиз Компания билан бизнес муносабатларини ўрнатиш учун кўриб чиқилаётганлиги сабабли тақдим этилади. Ушбу сўровномани Компанияга тақдим этиш фақат кўриб чиқиш жараёнидаги бир илк қадамdir ва ушбу мазкур тақдимот Компания ва Сиз/Сизнинг ташкилотингиз ўртасида бизнес муносабатлари мавжудлигини тасдиқламайди.

Сизнинг томонингиздан ушбу анкетада тақдим этилган маълумотлардан Компания томонидан Ўзбекистон Республикаси, АҚШ ва бошқа юрисдикцияларнинг коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги қонунларига риоя қилиш учун фойдаланилади. Саволлар фақат Компания томонидан юқоридаги қонунларга риоя қилинишига тегишли маълумотларни олиш учун тузилган. Компания Сиз/Сизнинг ташкилотингиз тўғрисида қўшимча маълумотларни сизнинг жавобларингизда кўрсатилган тавсия берувчилар ва бошқа томонлардан олади ва ушбу маълумотлардан юқорида баён этилган мақсадларда фойдаланади. Ушбу сўровнома орқали тавсия берувчиларингиз ва бошқа томонлар тарафидан олинган маълумотлар бирон-бир бошқа мақсадларда фойдаланилмайди, узатилмайди ёки қайта ишланмайди.

Ушбу сўровнома орқали олинган маълумотлар Компанияяning ходимларига ёки жалб этилган юридик фирмаларига маълумотни қайта ишлаш учун юборилиши мумкин. Компания ушбу маълумотларни Компания сиёсати ва процедуralарига мувофиқ юқорида баён этилган мақсадлар билан боғлиқ бўлган вақтгача сақлаб қолади.

Сиз ўзингизга тегишли маълумотларга олиш ҳуқуқига ёки, агар у нотўғри бўлса, Компаниядаги сизга тегишли маълумотларни ўзгартириш ёки йўқ қилиш ҳуқуқига эга бўлишингиз мумкин. Анкетани тўлдириш ихтиёрий, аммо анкетани тўлдириласлик Компанияяning Сиз билан иш олиб бориши қарорига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Агар сизда юқоридагилар бўйича бирон-бир саволингиз ёки хавотирларингиз бўлса, илтимос, Компанияяning Боғланиш учун шахс билан боғланинг.

Марҳамат, қуйидагиларни тўлдириинг:

UzAuto		УМУМИЙ МАЪЛУМОТЛАР
1	Ташкилотингизнинг номи	
2	Ташкилотингизнинг солиқ тўловчининг индивидуал рақами (СТИР)	
3	Ташкилотингизнинг олдинги номлари (агар бўлса)	

4	Юридик манзил	
5	Давлат рўйхатига олинган / рўйхатдан ўтган сана	
6	Банк реквизитлари (ҳисоб рақами, банк, манзил, банк коди ва бошқа керакли маълумотлар)	
7	Бизнеснинг асосий йўналишлари (низом/патентга кўра ва ҳақиқатда)	
8	Сиз бизнеснинг ушбу соҳаларида неча йилдан бери иш юритяпсиз?	
9	Ходимлар сони, агар мавжуд бўлса	
10	Ташкилотингиз банкротлик / тугатиш жараёнидами?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>

ТАШКИЛОТИНГИЗ, МУАССИСЛАР, ИШЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ

11	Сизнинг ёки йирик акциядорингизнинг акциялари Буюк Британияда ёки АҚШда кимматли қоғозлар бозорида котировка қилинадими?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
		Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотлар (шу жумладан, агар мавжуд бўлса, кўп қисмининг эгаси ва тегишли биржаларнинг номлари)ни маълум қилинг:

Шарх:

12	Илтимос, ташкилотингизнинг асосий ходимларини, шу жумладан (а) бош директор/президент/ бошқарувчи ҳамкор ва, агар мавжуд бўлса: (б) молиявий директор; (с) бош бухгалтер; (д) комплаенс бўлими раҳбари; ва (д) кузатув кенгаши аъзолари ёки уларга тенглаштирилган шахсларни кўрсатинг.
----	---

Лавозими	Ф.И.Ш.	ИНН	Тайинланган иили

13 Илтимос, компаниянинг муассислари, шу жумладан, якуний бенефициарлар ҳақида маълумот беринг.

Якуний бенефициар – бу тўғридан-тўғри ёки бошқа компаниялар иштирок этиш орқали компаниянинг ҳақиқий эгаси бўлган жисмоний шахс.

Яқин қариндошлар - ота-она, турмуш ўртоғи, aka-ука, опа-сингил, фарзандлар, ҳамда турмуш ўртоғининг ота-онаси, aka-укаси, опа-синглиси.

Ташкилотингиз муассисларининг номи	СТИР	Фоизлардаги улуш (илтимос, улуси 10 фоиздан ошган йирик муассисларни кўрсатинг)

14	Директорларингиз, мансабдор шахсларингиз, аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефециарларингиздан (ёки бундай шахсларнинг истаган яқин қариндошлари) бири Компания ходимлари ҳисобланадими?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ха” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг

Шарх:

15	Сиз ўзингиз акциялар, капитал, фойда ёки овоз бериш ҳуқуқининг 20 фоизидан кўпроғига эга бўлган компанияларингиз номларини ва СТИРни кўрсатинг
----	--

Ташкилот номи	СТИР	Фоизлардаги улуш (илтимос, улуши 20 фоиздан ошган кўрсатинг)

ТИЖОРАТ МАЪЛУМОТЛАРИ

16	Сизни тавсия этиши мумкин бўлган камида 3 (уч) нафар шахснинг боғланиш учун маълумотларини тақдим этинг		
----	---	--	--

1-тавсия берувчи	Ф.И.Ш.		
Ташкилот		Лавозими	
Телефон		E-mail	
2-тавсия берувчи	Ф.И.Ш.		
Ташкилот		Лавозими	
Телефон		E-mail	
3-тавсия берувчи	Ф.И.Ш.		
Ташкилот		Лавозими	
Телефон		E-mail	

ҚОНУНЧИЛИККА РИОЯ ЭТИЛИШИ

Амалдаги қонунчиллик - пораҳўрлик ёки коррупцияга қарши кураш, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, фирибгарликка қарши курашни тартибга солувчи ва Томонларга тааллуқли бўлган ҳар қандай қонунлар, қоидалар ёки Ўзбекистон Республикасининг ёки бошқа бирон-бир давлатнинг қонун хужжатлари, шу жумладан, АҚШ

“Чет эл коррупцияси тўғрисида” ги қонуни (FCPA) ва Буюк Британиянинг “Порахўрлик тўғрисида” ги қонуни (UKBA) билан чекланмаган ҳолда.

17	<p>Сўнгги 3 йил давомида сиз ёки сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефециарларингиз (агар мавжуд бўлса):</p> <p>(1) Амалдаги қонунчилик ёки сизнинг бизнесингиз билан боғлиқ бошқа ҳар қандай даъволар, тергов ҳаракатлари ёки мажбурий ижро ҳаракатларининг предмети бўлганми; ёки</p> <p>(2) маълум бир фаолият билан шуғулланиш хуқуқидан маҳрум этилганми?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “ха” бўлса, илтимос, ҳаракатлар ва натижаларнинг тафсилотларини кўрсатиб, тегишли хужжатларни илова қилиб изоҳланг:</p>
18	<p>Сиз, сизнинг қўлингиз остидаги мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, ходимларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорлар ёки якуний бенефециарларингиз (агар мавжуд бўлса) томонидан Амалдаги қонунчиликнинг ҳақиқатда ёки эҳтимолда бузилиши, ёки бизнес амалиётингиз билан боғлиқ бошқа ҳаракатлар ҳақида хабарингиз борми?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “ха” бўлса, илтимос, ҳаракатлар ва натижаларнинг тафсилотларини кўрсатиб, тегишли хужжатларни илова қилиб изоҳланг:</p>
19	<p>Сиз рўйхатдан ўтган жойингиз юрисдиксиясида ва сиз бизнес юритадиган бошқа барча мамлакатлардаги Амалдаги қонунчиллика риоя қиласизми?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “йўқ” бўлса, илтимос, тушунтириб беринг</p>

Шарх:

20	<p>Мажбурий меҳнат (шу жумладан болалар меҳнати) товарларни ёки маҳсулотларни ишлаб чиқаришда (ишларни ёки хизматларни кўрсатишда) фойдаланилмаганлигига ва/ёки фойданилмаётганлигига кафолат берасизми?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “йўқ” бўлса, илтимос, тушунтириб беринг</p>
----	--	--	---

Шарх:

21	<p>Сизнинг ташкилотингизда:</p> <p>Бизнес хулқ-атвори кодекси, ахлоқ қоидалари ёки шунга ўхшаш хужжат амал қиласими?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “ха” бўлса, илтимос илова қилинг.</p>
	<p>Порахўрлик ва коррупцияга қарши кураш дастури (сиёсати)?</p>	<input type="checkbox"/> Ха <input type="checkbox"/> Йўқ	<p>Агар “ха” бўлса, илтимос илова қилинг.</p>

САНКЦИЯЛАР РЕЖИМИГА РИОЯ ЭТИЛИШИ

Ушбу бўлмининг мақсадлари учун:

Санкциялар – Америка Кўшма Штатлари, Европа Иттифоқи ёки Европа Иттифоқининг аъзо давлати, Буюк Британия ёки Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан ҳар қандай иктисодий, молиявий ёки савдо санкциялари ёки эмбаргоси, экспорт назорати ёки бошқа чеклов чораларини қўллаш билан боғлиқ ҳар қандай қонун, қарор, фармон, суд қарори ёки бошқа қонуний мажбуриятларни англатади.

Санкцияланган шахс – ҳар қандай Санкциялар билан муносабатлари чекланган ёки тақиқланган ҳар қандай жисмоний ёки юридик шахс (“Шахс”), шу жумладан (а) ушбу Шахсларнинг ҳар қандай рўйхатида Санкциялар обьекти сифатида кўрсатилган ҳар қандай Шахс; (б) жойлашган, уюшган ёки резидент Шахс; ёки эгалик қиласиган ёки бошқариладиган Шахс; ёки ваколатли мамлакат ҳукумати (Крим, Куба, Эрон, Суряя, Судан ва Шимолий Корея) номидан ҳаракат қиласиган Шахс; ёки (с) ҳар қандай Санкцияларга мувофиқ бошқа тарзда чекланган ёки тақиқланган ҳар қандай муносабатлар, шу жумладан ҳар қандай эгалик, назорат ёки воситачилик муносабатлари ёки (а) ва (б) да кўрсатилган ҳар қандай Шахс билан ҳар қандай тўғридан-тўғри ёки билвосита тижорат алоқалари.

22	<p>Сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, ходимларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) Санкциялар субъектлари хисобланадими?</p>	<input type="checkbox"/> Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ	
Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг			

Шарх:

23	<p>Сўнгги 3 йил давомида сиз ёки сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) Санкциялар билан боғлиқ бошқа ҳар қандай даъволар, тергов ҳаракатлари ёки мажбурий ижро ҳаракатларининг предмети бўлганми?</p>	<input type="checkbox"/> Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ	
Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг			

Шарх:

24	<p>Сиз, Сизнинг мансабдор шахсларингиз, директорларингиз, ходимларингиз, бошқарув органлари аъзоларингиз, акциядорларингиз ёки якуний бенефициарларингиз (агар мавжуд бўлса) томонидан Санкцияларнинг бирон бир ҳақиқий ёки мумкин бўлган бузилиши ҳақида биласизми?</p>	<input type="checkbox"/> Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ	
Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг			

Шарх:

25	<p>Сизнинг ташкилотингиз тўғридан-тўғри ёки билвосита Санкцияланган шахслар билан иш юритадими?</p>	<input type="checkbox"/> Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ	
Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг			

Шарх:

26	Сизнинг ташкилотингиз санкцияланган мамлакатларда (Крим, Куба, Эрон, Сурия, Судан ва Шимолий Корея) тўғридан-тўғри ёки билвосита бизнес, инвестициялар, активларга эгами?	Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг
----	---	---

Шарх:

27	Сизнинг ташкилотингизда импорт ёки экспорт назорати, халқаро эмбарго ёки иқтисодий санкциялар билан боғлиқ хужжатлар амал қиласидими?	Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ҳа” бўлса, илтимос илова қилинг.
28	Сиз Компанияга тақдим этадиган бирон-бир товарлар ёки хизматлар Крим, Куба, Эрон, Сурия ва Шимолий Кореяда ишлаб чиқариладими (келиб чиқиши) ёки ушбу мамлакатлар орқали етказиб бериладими?	Ҳа <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ҳа” бўлса, илтимос, тафсилотларни маълум қилинг

Шарх:

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАР

Ушбу бўлим мининг мақсадлари учун:

Давлат хизматчиси – бу:

- давлат идорасининг, шу жумладан қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимият органлари, департамент, муассасалар, идоралар, давлат ёки давлат бошқаруви остидаги корхона ва ташкилотлар, шунингдек, давлат улуши бўлган корхоналар номидан иш юритадиган ҳар қандай мансабдор шахс ёки хизматчи;
- халқаро ташкилот (масалан, Жаҳон банки ёки Бирлашган Миллатлар Ташкилоти)нинг номидан ваколат берилган ҳар қандай мансабдор шахси;
- сиёсий партия аъзоси ёки сиёсий лавозимга номзод;
- ҳар қандай сиёсий таъсир кўрсатадиган шахс;
- юқорида қайд этилган шахслардан бирининг яқин қариндошлари.

Сиёсий таъсир кўрсатадиган шахс – амалдаги ёки собиқ юқори лавозимли амалдор, шу жумладан, маҳаллий давлат ҳокимияти ёки ўзини ўзи бошқариш органларининг раҳбари; хукумат раҳбари, вазир (вазир ўринбосари); парламент депутати ёки шунга ўхшаш қонун чиқарувчи орган аъзоси; сиёсий партияning бошқарув органи (кенгаши) аъзоси; Конституциявий суд, Олий суд судьяси ёки бошқа даражадаги суд органининг судьяси (суд органи аъзоси); олий тафтиш (аудиторлик) ташкилоти кенгаши ёки бошқарув аъзоси; Марказий банк кенгаши ёки бошқарув аъзоси; элчи (консул); инсон хуқуклари бўйича вакил ёки бизнес омбудсман; катта лавозимдаги ҳарбий офицер; давлат улуши бўлган компания кенгаши ёки бошқарув аъзоси; халқаро ташкилот раҳбари ҳисобланади.

29	Юқоридаги “ТАШКИЛОТИНГИЗ, МУАССИСЛАР, ИШЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ” бўлимида белгиланган шахслар (ва уларнинг ҳар қандай яқин қариндошлари) қўйидагилар бўлганми:	
----	--	--

Амалдаги ёки собиқ Давлат хизматчиси?

Ҳа Йўқ

	Сизда бирон-бир Давлат хизматчисининг қарор қабул қилишига таъсир қилиш (расмий ёки норасмий, тўғридан-тўғри ёки билвосита) имконияти борми?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Агар юқоридаги саволларнинг бирортасига жавоб “ха” бўлса, марҳамат, тафсилотларни, шу жумладан тегишли шахснинг фамилиясини, исмини ва шаърифини ҳамда давлат идораси ёки ташкилотининг тўлиқ номини тақдим этинг:	
	<u>Шарх:</u>	
30	Сиз ёки сизнинг номингиздан ёки бирон-бир контрагент орқали тўғридан-тўғри ёки билвосита Давлат хизматчисига қуйидаги мақсадлар учун тўловлар амалга оширилганми ёки бирон-бир қимматбаҳо буюмлар ўтказилганми (кймати қандай бўлишидан қатъи назар) ҳамда бунга сиз томондан рухсат берилган, ваъда қилинган ёки таклиф қилинганми:	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Бизнесга эга бўлиш ёки сақлаб қолиш?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Бундай Давлат хизматчи томонидан ҳукуматнинг одатий ишларини тезлаштириш ёки бажарилишини таъминлаш (масалан, рухсатнома ёки лицензия олиш учун ҳар қандай мурожаатни тезлаштиришга кўмаклашиш)?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Рухсатномалар ёки лицензияларни олиш, ёки экология, солиқ ва/ ёки божхона масалалари билан боғлиқ ҳар қандай қулай харакатларга эришиш?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Агар юқоридаги саволлардан истаган бирига жавоб “ха” бўлса, илтимос, тафсилотларни баён этинг.	
	<u>Шарх:</u>	
31	Потенциал бизнес ҳамкор сифатида сиз (шу жумладан, ҳар қандай директорлар, мансабдор шахслар, ходимлар ёки филиаллар орқали) Компания номидан ҳар қандай Давлат хизматчилари билан ўзаро алоқада бўлишингиз мумкинми?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/> Агар “ха” бўлса, илтимос, алоқа хусусиятларини тавсифлаб беринг.
	<u>Шарх:</u>	
СУБПУДРАТЧИЛАР ЁКИ СУБУБАГЕНТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ		
32	Сиз Компания учун бажариладиган ишлар бўйича бирон-бир субпудратчи ёки субагентдан фойдаланмоқчимисиз?	Xa <input type="checkbox"/> Йўқ <input type="checkbox"/>
	Агар “ха” бўлса, марҳамат, субпудратчи (лар) ёки субагент (лар) томонидан шунга ўхшаш тарзда тўлдирилган комплекс текширув анкетасини тақдим этинг.	
ИЛОВА		

Илтимос, уставингиз, таъсис шартномангиз (агар мавжуд бўлса) тақдим (илова) этинг.	Илова қилинади <input type="checkbox"/>
Илтимос, давлат рўйхатидан ўтганлик тўғрисидаги гувоҳномани тақдим (илова) этинг.	Илова қилинади <input type="checkbox"/>
Илтимос, бош директорингиз/президентингиз/ бошқарувчи ҳамкорингиз ёки сизнинг номингиздан Компания билан шартномани имзолайдиган истаган бошқа шахснинг ҳақиқий паспорти ёки шахсини тасдиқловчи бошқа хужжат нусхаси тақдим (илова) этинг.	Илова қилинади <input type="checkbox"/>

Ушбу орқали мен мазкур Анкетада келтирилган ёки унга биректирилган барча маълумотлар ва / ёки хужжатлар тўғри, тўлиқ ва аниқ эканлигини тасдиқлайман.

Ф.И.Ш.	
Ташкилот	
Лавозим	
Сана	

Имзо

Мухр (агар мавжуд бўлса)

Компания фойдаланиши учун:

Рўйхат ўтган рақами: №DDQ-20____ - ____

Қабул қилиш санаси: ____/____/_____